

## XALQ AMALIY SAN'ATIDA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGINING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

**Soli Tolibovich Sa'diyev**

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Tasviriyy san’at va muhandislik grafikasi”

kafedrasи v/b dotsenti

[s.t.sadiyev@mail.ru](mailto:s.t.sadiyev@mail.ru)

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada Xalq amaliy bezak san’atining o‘qitishda yog‘och o‘ymakorligining amaliy asoslariga bag‘ishlangan. Unda Xalq amaliy bezak san’ati tarixidan lavhalar, tasvirlashning asosiy qonun qoidalari: konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva, kompozitsiya masalalari hamda ish jarayonidan lavhalar, turli yo‘nalishda ijod qilayotgan ustalar ishlaridan namoishlar ko‘rsatilgan. Shu bilan birgalikda kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodga bu hunarni to‘la-to‘kiz yetkazish, ustozlar oldida burchdir. Bu hunar yosh avlodning badiiy didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga, ularga borliqni tasvirlash uchun tasviriyy san’at asoslarini chuqur egallashga, haqqoniy rasm chizish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vazifasi ham turadi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiylici bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog‘ochdan ishlangan ajoyib buyumlarga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay, asrlar o‘tishi bilan ular namga dosh bera olmay deyarli ko‘pchiligi chirib, yo‘q bo‘lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda. Yog‘ochda dov-daraxtlarning aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san’ati otadan bolaga, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘taverdi.

**Kalit so‘zlar:** *Uy-ro‘zg‘or buyumlari, nafosati, murakkabligi, tabiiylici, eshiklar, binolar, ustun, ravoq, xontaxta.*

**Annotasiya:** Данная статья посвящена практическим основам резьбы по дереву в обучении народному декоративно-прикладному искусству. Показаны сцены из истории народного декоративно-прикладного искусства, основные правила изображения: конструктивный строй, пропорции, перспектива, вопросы композиции, а также сцены из рабочего процесса, демонстрации работ мастеров, творящих в разных направлениях. В то же время обязанность педагогов в полной мере передать это ремесло молодому поколению, которое является нашим

будущим. Это ремесло отвечает за развитие художественного вкуса и творческих способностей подрастающего поколения, за овладение им основами изобразительного искусства для описания бытия, формирование навыков и квалификации реалистической живописи. Произведения, созданные народом, поражают воображение человека своей изысканностью, сложностью и естественностью. К сожалению, несмотря на качественную обработку замечательных деревянных предметов, с течением веков почти все они сгнили и исчезли из-за влаги. Об этом свидетельствуют образцы, найденные и до сих пор находимые при археологических раскопках. Они продемонстрировали, как передать отражение деревьев в древесине и как составить сложные геометрические фигуры из простых линий. Искусство мастеров передавалось от отца к сыну, из поколения в поколение.

**Ключевые слова:** предметы быта, изысканность, сложность, естественность, двери, постройки, колонна, арка, хонтахт.

### **Abstract:**

This article is dedicated to the practical basics of wood carving in the teaching of folk decorative art. It shows scenes from the history of folk decorative art, the basic rules of depiction: constructive structure, proportions, perspective, composition issues, as well as scenes from the work process, demonstrations of the works of masters who create in different directions. At the same time, it is the duty of teachers to fully convey this craft to the young generation, who are our future. This craft is responsible for the development of the artistic taste and creative abilities of the young generation, for them to acquire the fundamentals of visual art in order to describe the existence, and to form the skills and abilities of realistic painting. The works created by the people amaze the human mind with their elegance, complexity and naturalness. Unfortunately, despite the high-quality treatment of wonderful wooden items, over the centuries, almost all of them rotted and disappeared due to moisture. These are proven by the samples found and still being found in archaeological excavations. They demonstrated how to express the reflection of trees in wood, and how to make complex geometric shapes from simple lines. The art of masters was passed down from father to son, from generation to generation.

**Key words:** household items, sophistication, complexity, naturalness, doors, buildings, column, archway, khontakht.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Yog‘och o‘ymakorligi O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turidan biridir. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib, ishlanadi. Badiiy sanatning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och o‘yma korligining rivojlanib o‘ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O‘rta Osiyoda ham yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarining uy-ro‘zg‘or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo‘llanilgan. Bu o‘ymakorlik qadimiylarining eshik darvoza, ustunlar, har xil to‘sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan O‘rta Osiyoda gorelefli, ya’ni juda bo‘rtiq (1mm dan 20 mm gacha) releflar bilan har xil narsalarni yog‘ochdan o‘yib ishlanganligi ma’lum bo‘ldi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ METHODS)

Xalq yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog‘ochdan ishlangan ajoyib buyumlarga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay, asrlar o‘tishi bilan ular namga dosh bera olmay deyarli ko‘pchiligi chirib, yo‘q bo‘lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.



1-rasm.

X-XI-asrlarda yog‘och o‘ymakorligi namunalari, Surxondaryo vohasidagi Yumaloq tepe tubidan topilgan. Olimlarimiz aniqlashicha bundan 1-1,5 ming yil

muqaddam, mazkur joyda, naqsh o‘ymakorligi san’ati bo‘lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan topilmoqda.




2-rasm.

Yog‘ochda dov-daraxtlarning aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san’ati otadan bolaga, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘taverdi. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda, shuningdek respublikamizda madaniyat rivojlana boshlaydi. IX-asrda Samarqand mustaqil davlat bo‘lib qoldi. Xalq madaniyatida yangi burilish bo‘ldi. Shu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar yetishib chiqdilar. Ular Abu Ali Ibn Sino, Rudaki, Firdavsi, Beruniy va boshqalardir. Ajoyib arxitekrura yodgorliklari yaratildi. Masalan jahonga mashhur, Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi shulardan biridir. Madaniyatning rivojlanishi yog‘och o‘ymakorligining yanada rivojlanishiga olib keldi.

## NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Yog‘och o‘ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq har xil xontaxtalar bezatildi. O‘ymakor ustalar o‘zi yaratgan san’at asarlarida timsol va duo-afsunlar, tasbix va tanosiblarning naqadar ko‘pligini ko‘rish mumkin. Har bir o‘yma naqsh zaminida qandaydir ramziy ma’no yashiringan bo‘ladi. Ular bu murakkab naqshlar orqali voqe’likdagi eng go‘zal tilaklarni aks ettirib kelganlar. XI-XV-asrlarda xalq amaliy san’ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo‘lgan geometrik naqsh, ya’ni girix naqshi bezakda yetakchi o‘rini egalladi. Arxitektura uy ro‘zg‘or buyumlari yanada badiiy nafis qilib bezatildi. Girix naqshi yanada rivojlandi. Masalan, XV asrga oid yog‘och o‘ymakorligi namunasi Samarqandagi Shoxi-Zinda devorining

orqasidan topilgan bo‘lib, u o‘zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.



3-rasm.

XIX-asrda Chingizzon bosqinchiligi tufayli, madaniy hayot izdan chiqdi.

U 1219-1221-yillarda mo‘g‘il hukmdorligi ostida, O‘rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Mavr shaharlari ostin-ustun qilib tashlandi.

XIX-asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo Temur boshchiligidida biriktirildi. Temur va temuriylar davrida san’atning barcha turlari qatori xalq amaliy san’ati juda tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa yog‘och o‘ymakorligi ham yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Amir Temur O‘rta Osiyo madaniyati va san’atini rivojlantirishda hissa qo‘shdi.

«Amir Temur o‘z poytaxti (Samarqand)ning qurilish va obodonligi uchun harakat qilish bilan bir qatorda, Xuroson (Afg‘oniston), Eron, Movarounnaxr singari o‘lkalardan eng mashhur hunarmandlarni, san’atkorlarni poytaxtgaga to‘pladi. Nafis tasviriy san’atining naqqoshlik me’morchiliq arxitektura, xattotlik kabi san’at turlarini rivojlantirishda ulardan unumli foydalandi. XIV-XV-asrlarda Samarqandda to‘plangan mahalliy va xorijiy san’atkorlar, hunarmandlar va muhandislar jome’ masjитlari, madrasalar, xonaqolar, saroylar hamda boshqa ulkan inshootlar qurilishida faol qatnashganlar, ular hozirgi kunlarda biz ko‘rib ko‘zimiz va dilimiz quvonayotgan go‘zal va nafis tarixiy-madaniy obidalar, asori-atiqalarning bunyod etilishida o‘zlarining butun bilim, hunar, san’at va mahoratlarini sarf etganlar. XIV- asr O‘rtalarida Shayx Sayfuddin Boxarziyning daxmasiga ishlangan, yog‘och o‘ymakorligi naqshi topildi. San’atning ustki qismida o‘rnatilgan yog‘och taxtasidagi

o‘ymalar shunday o‘yilganki, o‘yma naqshning nafisligi, uning murakkabligi, tabiiylici, dinamikligi, juda sifatli o‘yilganligi kishini hayratga soladi. O‘ymani bajargan ustanning naqadar nozik didli kuchli nazariyotchi hamda amaliyotchi yetuk usta ekanligi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Undagi naqshlarning erkin, nozik harakati inson ruhini ko‘taradi. XIV-XV asrlarda yog‘och o‘ymakorligi tez ko‘lamda rivojlandi. Hattoki tirik mavjudotlar o‘yib tasvirlangan ishlarni ham ko‘rish mumkin edi. Samarqanddagi Ruhobod maqbarasining eshidiga o‘yma naqsh bajarilgan bo‘lib, baliqning stilashtirgan tasvirini ko‘rish mumkin. Temuriylar imperiyasi inqirozga uchradi. XVI-XVII-asrlardagi o‘zaro ichki urushlar madaniyatimizga, shu qatori xalq amaliy san’atining rivojlanishiga salbiy ta’sir etdi. XVI-XIX asrlarda tirik jonzodlarning tasviri, ya’ni qush, baliq ilon va boshqalar yog‘och o‘ymakorligida juda kam tasvirlangan. XVIII-asrning oxiri XIX-asr boshlarida Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarida yetuk adabiyot namoyandalari qatori xalq amaliy san’ati ustalari ham yetishib chiqdi. Bu xonadonlarda kulolchilik misgarlik ganchkorlik sirkorlik qatori, yog‘och o‘ymakorligi ham gurkirab rivojlandi.

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

XIX-XX - asrlarda yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik naqqoshlik va san’atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi. Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi, Toshkentdagi knyaz N.Q.Romanovlarning saroyi va A.A.Polovsev uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxo‘ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Moxi-Xosa va boshqalarda ajoyib yog‘och o‘ymakorligi namunalari yaratildi. Bu esa o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi san’atining beba ho asaridir. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati ustalari qatori yog‘och o‘ymakor ustalari, xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasida bir necha pavlonni, Toshkentdagi Muqumiylar, Navoiy, Hamza teatrularini, Navoiy muzeyini ko‘pgina jamoat tashkilotlarining binolarini, restoran, savdo markazlari va boshqa joylarni yog‘och o‘ymakorligining ajoyib namunalari bilan bezadilar.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

O‘zbek xalqining eng ko‘zga tashlangan ustalridan, Olimjon Qosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xo‘jayev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalarni yaratdilar. Ular o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shog‘irdlar yetishtirdilar. Dono xalqimizda "Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lur", bu maqolda shogird u yoki bu ishni bitirgandan, og‘irini yengil, mushkulini oson qiladigan ish quollarini, hamisha shay qilib qo‘yish kerakligini, hamda biror ishni qilib bo‘lgandan so‘ng, bir chekkaga tozalamasdan

uloqtirib, zang bostirib qo‘ymasligi, o‘tmas bo‘lib qolsa charxlab, o‘tkir qilib qo‘yishi, buzilsa darhol tuzatish va ularni maxsus joyda saqlash kerak. Yog‘och o‘makorlikda ham o‘ziga xos asbob-uskunalar ishlataladi. Naqsh kompozitsiyalar chizish uchun chizgichlar, pargor, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o‘chirg‘ichlar, shaffof qog‘oz, oq qog‘ozlar kerak bo‘ladi va hokazo.

Ustoz shogird an'analarini saqlab qolgan holda, kelajag avlodga yetkazishimiz bu bizning burchimizdir.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Qodirxýjaev P. T. Badiiy bezak san'ati. -T: "Iqtisod moliya" 2007.
2. Xolmatov B.Q. Kompozisiya. -T: "Iqtisod-moliya", 2007.
3. Bulatov S.S., Dadashov L. Naqsh alifbosi.-T: Cho‘lpon, 1999.
4. S. Bo‘latov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. Toshkent, Mehnat, 1994 yil.

## **INTERNET SAYTLARI**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. www.Ziyonet.uz
4. [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_1444\\_20210810.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_1444_20210810.pdf)